

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE USE OF ADJECTIVES RELATED TO COLOR IN TILAK JORA'S WORK****Mutabar Khujamova***PhD candidate**Department of Uzbek Language**Navoi State University*[xojamovamotabar@gmail.com](mailto:xojamovamotabar@gmail.com)*Navoi, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Lexical layer, native word, Turkic layer, Persian-Tajik layer, etymology.**Received:** 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25**Abstract:** In the article, the characteristics of the use of words in the lexical layers of the Uzbek language in the artistic text were analyzed on the example of the poet's work. The adjectives denoting color in the artist's collections "Rayhon" and "Threshold of the World" were considered, and etymological attention was paid to the Persian-Tajik and original Turkic layer color names found in them.**TILAK JO'RA IJODIDA RANG-TUS BILAN BOG'LIQ O'ZLASHMA SO'ZLARING QO'LLANILISHI****Mu'tabar Xo'jamova***O'zbek tili kafedrasi tayanch doktoranti**Navoiy davlat universiteti*[xojamovamotabar@gmail.com](mailto:xojamovamotabar@gmail.com)*Navoiy, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** Leksik qatlam, o'zlashma so'z, turkiy qatlam, forsha-tojikcha qatlam, etimologiya.**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tili leksik qatlamlarida o'zlashma so'zlarning badiiy matndagi qo'llanish xususiyatlari shoir ijodi misolida tahlil qilindi. Ijodkorning "Rayhon" va "Olam ostonasi" to'plamlaridagi rang-tusni bildiruvchi sifatlar ko'rib chiqilib, unda uchraydigan forsha-tojikcha va asl turkiy qatlamga oid rang nomlariga etimologik e'tibor qaratildi.**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, СВЯЗАННЫХ С ЦВЕТОМ, В ТВОРЧЕСТВЕ ТИЛАКА ДЖОРЫ**

**Муътабар Хужамова**

Докторант базовой докторантуры кафедры узбекского языка

Навоийский государственный университет

[hojamovamotabar@gmail.com](mailto:hojamovamotabar@gmail.com)

Навоий, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Лексический слой, родное слово, тюркский слой, персидско-таджикский слой, этимология.

**Аннотация:** В статье на примере творчества поэта проанализированы особенности употребления слов лексических пластов узбекского языка в художественном тексте. Рассмотрены прилагательные, обозначающие цвет, в сборниках художника «Райхон» и «Порог мира», обращено этимологическое внимание на встречающиеся в них персидско-таджикские и исконно-тюркские пластовые названия цветов.

**Kirish.** Har bir tilning leksik tarkibida boshqa tillardan kirgan soʻzlar salmoqli oʻrinni egallaydi va ular tilning tarixiy taraqqiy etishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday oʻzlashmalar jamiyatlarning uzoq tarixiy jarayonda oʻzaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar olib borishi natijasida yuzaga keladi. Til esa jamiyat hayotining asosiy kommunikativ vositasi sifatida mazkur jarayonlarga bevosita taʼsirchanlik kasb etadi hamda doimiy ravishda yangilanib, boyib boradi.

Lingvistik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, boshqa tillar taʼsiridan mutlaqo xoli boʻlgan til mavjud emas. Chunki har bir til, oʻz milliy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtar ekan, boshqa tillar bilan aloqa va munosabatda boʻlishi muqarrar. Shu bois oʻzlashma soʻzlar nafaqat leksik tizimning bir qismi, balki xalqning ijtimoiy-tarixiy hayoti, madaniy aloqalari va maʼnaviy tajribasining ham koʻzgusidir.

**Metodologiya.** Tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv), kontekstual tahlil hamda etimologik metodlar qoʻllandi. Tilak Joʻra sheʼriyatidan rang-tusni anglatuvchi soʻzlar ajratib olindi, ularning kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti va badiiy matndagi funksional yuki lugʻaviy manbalar (OʻTIL, etimologik lugʻatlar, "Tarjumon", "Navoiy asarlari lugʻati") asosida tahlil qilindi. Soʻzlarning poetik kontekstda qoʻllanishi matn tahlili orqali aniqlanib, oʻzlashma va turkiy qatlamga mansubligi belgilandi.

**Tahlillar va natijalar.** Tilak Joʻra ijodida rang-tusni anglatuvchi oʻzlashma soʻzlar juda koʻp uchraydi. Jumladan, "Rayhon" sheʼriy toʻplamidan oʻrin olgan quyidagi misraga diqqat qilamiz:

Buxoroning dashtida

Zangor olov taftida.

Zangor(i) leksemasi fors tilidan olingan bo‘lib, “metall sirtida hosil bo‘ladigan oksid qatlami” ma’nosini anglatadigan tojikcha zang otidan -or qo‘shimchasi bilan yasalgan zangor otiga zangar I. 1) ярьмедянка; 2) ржавчина) -i qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, “to‘q qizil” ma’nosini anglatishi qayd etilgan; bu leksik birlik “yashil bilan ko‘k o‘rtasidagi rangga ega bo‘lgan; havorang, moviy” deb izohlangani o‘rinli bo‘lmagan, deb izohlanadi. Mumtoz adabiyotimizning yirik vakili Alisher Navoiy ijodida zangor leksemasi bir nechta ma’nolarda qo‘llanganligi kuzatiladi: 1. Yashil, zangor:

Qadar Shopurni anjumdin sadafgor,  
Anga charxu shafaq shingarfu zangor.  
Farhod va Shirin.

Qari qahba gulgunau vusma bila yuzu qoshlig‘- buzuz mafaqadur, shingarfu va zangor bila naqqoshlig‘.

Mahbubul-qulub.

2. Zang, mog‘or:

Xatda ruxsoring suv erkinmu yoshung‘on sabzada,  
Yo‘qsa ko‘zgudurki qolmish har taraf zangor aro.  
Xayoyinul-maoniy.

Zangori – sariq-yashil rang:

Bog‘aro xat ichra og‘zingdan qizorib sorg‘orib,  
Necha zangori libosi birla boshin burkadi.

Xazoyinul-maoniy

Muxtalif keldi charxi zangori

Andin ortuq nujumi sayyori.

Sab‘ai sayyor

Keyingi misraga diqqat qilamiz:

Daryoning mavjini,

Ilonning chipor rangini sevaman...

Chipor leksemasi ola-bula, olachipor degan ma’noni bildiradi. Masalan: unda, suratda, kattakon daraxtga o‘ralib yotgan yo‘g‘on chipor ilon tasvir etilgan.(Sh.Xolmirzayev).

Bir ozgina rangi o‘chgan

Oqish ro‘molin bug‘doyrang

Yuzimga yoygani;

Oqish/oq leksemasi “qor sut rangidagi” deb izohlangan . Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu sifat a:q tarzida talaffuz qilingan , o’sha davrlardayoq a: unlisining cho’ziqroq belgisi yo’qolgan ; o’zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: a:q>aq>âq.

“Tarjumon” lug’atining yigirma uchinchi fasl ranglar haqida bo’limida ham aq shaklida uchraydi.

Buxoro o’g’uz shevalarida ɔ:k//ɔ:k “ok” shaklida uchraydi.

Bug’doyrang so’zi O‘TILda yuzi bug’doy ranggiga o’xshash, qorachadan kelgan, qorachaga moyil, deb izohlangan.

“Tarjumon” lug’atining yigirma uchinchi fasl ranglar haqida bo’limida қара йағыз- qora mag’iz, bug’doyrang deb uchraydi.

Noparmon bo’yoqda

Shu lavhani bir umid bilan

Chizyapman...

Noparmon/nafarmon fors tilidan olingan bo’lib, O‘TILda och binafsha, qizg’ish binafsha rangli, deb berilgan. “Navoiy asarlarining izohli lug’ati”da nofarmon - “qizg’ish” shaklida uchraydi.

Ko’kortib anda ko’k armon guli ko’p,

Ko’kargan balki nofarmon guli ko’p.

Farxod va Shirin, 89.

Tilak Jo’ra ijodiga mansub “Olam ostonasi” to’plamidan o’rin olgan “Osmonning ranggi” she’rida rang-tasvir bilan bog’liq so’zlar ko’p uchraydi:

Ruhimga ko’chdi osmonning ranggi:

Niliy, nilgun

Qop-qora ranglarni ichdim,

Umrin halqasida ularning janggi.

Niliy/nilgun so’zi fors tilidan olingan bo’lib O‘TILda “to’q ko’k, zangori” shaklida uchraydi.

Nilgun - nilrang, ko’krang; =toram - ko’k rangli gumbaz osmon :

Mash’ali bo’lmish malak ilgida ravzang boshig’a,

Oy charog’i kechalar bu nilgun toram aro.

Xazoyinul-maoniy, Ib-479.

Qop-qora/qora so’zi O‘TILda rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to’q, deb berilgan. Qora asl turkiy so’z bo’lib - “ko’mir tusidagi”; “eng to’q rang”, degan ma’noni anglatadi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni va boshqa bir necha ma’noni anglatgan bu sifat asli qara tarzida talaffuz qilingan. ; o’zbek tilida birinchi bo’g’indagi a unlisi â unlisiga, ikkinchi bo’g’indagi a unlisi ä unlisiga almashgan: qara>qârä.

“Tarjumon” lug‘atining yigirma uchinchi fasl ranglar haqida bo‘limida qora-qora/ qap-qara-qop-qora shaklida uchraydi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida қаро “қора” ko‘rinishida uchraydi.

Taras Bulba tutunini puflasa ko‘kka,

Bizning Tarnovboy,

Ko‘k tutunini puflaydi yerga.

Ko‘k so‘zi O‘TILda tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori, deb berilgan. Qora leksemasi asl turkiy so‘z bo‘lib “moviy, zangori” degan ma‘noni bildiradi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni va boshqa bir necha ma‘noni anglatgan bu sifat asli kö:k tarzida talaffuz qilingan. keyinroq ö unlisining cho‘ziqlik belgisi o‘zbek tilida esa yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: kö:k>kök>kok.

“Tarjumon” lug‘atining yigirma uchinchi fasl ranglar haqida bo‘limida kök-ko‘k tarzida uchraydi.

“Yoz kechasi” she‘ridagi misraga diqqat qilamiz:

Sevgilim,

Sening zarhal tarog‘ingmi

Oyning yangi o‘rog‘i?

Misradagi zarhal leksemasi, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da forsha, [tilla suvi, zar suvi] - 1) ot, tilla, kumush yoki bronza kukunidan tayyorlangan yaltiroq bo‘yoq. 2) sifat, shunday bo‘yoq bilan chizilgan yoki oltin suvi yugurtirilgan; zarrin, zar bilan qoplangan, deb izohlangan.

Zarhal - bu ot “oltin” ma‘nosini anglatadigan tojikcha zar oti bilan “bo‘yoq” ma‘nosini anglatadigan hal otidan tuzilgan.

“Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da zarhal - zar bezakli, zar bilan ziynatlash:

Turfa oyedur uzoring, ko‘k anga moviy libos,

Anjum oning tanga-tanga bosma qilg‘on zarhali.

Xazoyinul-maoniy, Ia-421.

Kumush ufqlarga qarab shivirlar:

“Ko‘nglimni to‘yg‘azu yerga qo‘y meni...”

Bu yerda kumush so‘zi rang ma‘nosida sifatlashgan. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da kumush - “oq-ko‘kish rangli qimmatbaho ma‘dan”. Kuzgi qatiq, kumush qoshiq - kuyovlarga berguli (Matal). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli kümüş tarzida talaffuz qilingan, o‘zbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: kümüş > kumush. Bu ot o‘zbek tilining ayrim shevalarida komish (kümish) tarzida buzib talaffuz qilinadi.

“Tarjumon” lug‘atining yigirma to‘rtinchi fasl ma‘danlar haqida bo‘limida kumish tarzida uchraydi.

Kulrang bo'shliqlarga qarab shivirlar:

“Ko'nglimni to'yg'azu yerga qo'y meni...”

Kulrang leksemasi kul – “Biror narsaning yonib-kuyishi oqibatida hosil bo'ladigan changsimon mineral qoldiq”. O'choqning kulini olib, keyin o'tin qaladi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli kül tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: kül>kul. Rang bu – sifat “bo'yoq” ma'nosini anglatadigan tojikcha so'z. Kulrang kuldek rangda, oq bilan qorani aralashtirgandagi rang. Ko'chma ma'noda zerikarli, rangsiz, hayotsiz.

Jo'xorining rangiday

Osmon edi zangori.

Jo'xorirang so'zi jo'xori – ot o'zbekcha “so'tali va boshqali g'alla o'simligi” ma'nosini anglatadi. Rang – sifat “bo'yoq” ma'nosini anglatadigan tojikcha so'z.

Bizni urdi Shodi sariq,

Sindirib bergin qo'lin...

Sariq “somon rangli”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat sarıyğ tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida g' undoshi q undoshiga, a unlisi ä unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: sarıyğ> sarıyq>säriq. Bu so'z oxiridagi -q(-iq) qismi – sifat yasovchi qo'shimcha, lekin sari-(sar-) qismining ma'nosini izohlash qiyin. Bu qism “sariq holatga aylangan” ma'nosini anglatuvchi fe'l bo'lsa kerak. Ko'pchilik turkiy tillarda bu sifatning sarıy shaklida mavjudligini yuqoridagi fikrni quvvatlaydi. Sarıy so'zi sarıyğ so'zi oxiridagi g' undoshini tashlab hosil qilingan deb izohlash to'g'ri bo'lmaydi. Asli sarıy sifati ы qo'shimchasi bilan yasalgan deb izohlash to'g'riroq. Unda sar- qismi fe'lga teng bo'lib chiqadi.

“Tarjumon” lug'atining yigirma uchinchi fasl ranglar haqida bo'limida saru-sariq tarzida uchraydi.

Zig'ir yog'ning zo'ridan

Rangim ham misli xo'roz.

“Zig'ir yog'ning zo'ridan rangim ham misli xo'roz” iborasi — xalqona, kinoyali (hazilomuz) ifoda bo'lib, quyidagi ma'noni anglatadi:

So'zma-so'z ma'nosi: Zig'ir yog'i — o'simlik yog'ining bir turi. “Zo'ridan” degani “eng sifatlisidan” degan ma'noda. “Rangim ham misli xo'roz” — “rangsiz emasman, yuzim tiniq, qizarib turibdi” degani.

Ma'no jihatdan: Bu ibora o'zini maqtash, sog'lom yoki chiroyli ekanini hazil bilan aytish uchun ishlatiladi, ya'ni: “Men yaxshi ovqatlanaman, yuzim tiniq, chiroyim joyida” yoki “men sog'lomman, yuzimda qon yugurib turibdi” degan ma'noni bildiradi. Kinoyaviy ma'noda: “O'zini

maqtaʼyotgan odam”ni masxara qilish uchun ham aytiladi. Masalan: “Zigʻir yogʻning zoʻridan rangim ham misli xoʻroz” — deb, oʻzini koʻrsatmoqchi boʻldi.

**Xulosa.** Har bir tilning leksik tarkibida mavjud boʻlgan oʻzlashma soʻzlar til taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida xalqning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiradi. Tilak Joʻra ijodida rang tasviri bilan bogʻliq soʻzlarning turli qatlamlardan – qadimiy turkiy, fors-tojik hamda boshqa manbalardan oʻzlashgani kuzatiladi. Shoir asarlarida uchraydigan “zangor”, “chipor”, “noparmon”, “nilgun” kabi oʻzlashma soʻzlar ranglarning badiiy ifodasini boyitgan boʻlsa, “oq”, “qora”, “koʻk” singari asl turkiy rang nomlari xalqning tarixiy til qatlamini namoyon qiladi. Bu hol shoir ijodida milliylik va universallikning oʻzaro uygʻunlashuvini koʻrsatib beradi. Xususan, rang nomlari orqali badiiy obrazlar tasviri kuchaygan, tilning estetik imkoniyatlari kengaygan, shu bilan birga xalqning tarixiy-madaniy xotirasi va qadimiy leksik merosi ham namoyon boʻlgan. Demak, Tilak Joʻra sheʼriyatida rang tasviri vositasida oʻzlashma soʻzlarning leksik qatlam sifatidagi oʻrni va ularning badiiy-estetik ahamiyati yaqqol namoyon boʻladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lugʻati. Oʻzbekiston, Fan, 1983.
2. “Tarjumon” - XIV asr yozma obidasi. -T., 1980.
3. Tilak Joʻra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent - 2011y
4. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Дисс. – Тошкент, 2018.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006.
6. Sh. Rahmatullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. - T., “Universitet”, 2000.